

Maqollarning lingvokognitiv aspektida o'rganilishi: tahlil va munosabat

Nazarov Qobilbek Narzulla o'g'li
nazarovqobilbek95@gmail.com

Tayanch-doktoranti

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarining lingvokognitiv xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, ularning xalq dunyoqarashi, madaniyati va hayotiy tajribasini aks ettirishdagi roli o'rganiladi. Maqollar xalq ma'naviyati, tafakkur tarzi va qadriyatlarini ifodalovchi muhim til birliklari bo'lib, avloddan-avlodga yetkaziladigan ijtimoiy-madaniy bilimlar tizimining asosiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda lingvokognitiv yondashuv asosida maqollar tarkibida mujassamlangan konseptlar tahlil qilinadi va ularning inson ongida shakllangan bilimlar tizimidagi o'rni aniqlanadi. Shuningdek, maqollar orqali ifodalangan axborotning chuqur semantik qatlamlari ochib beriladi va bu birliklarning xalq ongida qanday tasavvurlarni shakllantirishini izohlashga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada milliy mentalitet va ijtimoiy tajribaning maqollar orqali uzatilish mexanizmlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot lingvistik va kognitiv tahlil usullariga asoslanib, o'zbek xalq maqollarining semantik tuzilishi, konseptual asoslari va ularning madaniy merosdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: maqollar, lingvokognitiv aspekt, konseptual metafora, kognitiv lingvistika, manba maydoni, nishon maydoni

The Study of Proverbs from a Linguocognitive Perspective: Analysis and Interpretation

Nazarov Qobilbek Narzulla ugli
nazarovqobilbek95@gmail.com

Basic Doctoral student

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the linguocognitive features of Uzbek folk proverbs, examining their role in reflecting the worldview, culture, and life experiences of the people. Proverbs serve as important linguistic units that express the spiritual values, ways of thinking, and beliefs of the nation, functioning as a fundamental part of the socio-cultural knowledge system passed down from generation to generation. The study analyzes the concepts embedded in proverbs based on a linguocognitive approach and identifies their place within the system of knowledge formed in human cognition. Particular attention is paid to revealing the deep semantic layers of information conveyed through proverbs and explaining the images and perceptions they form in the minds of the people. The article also explores the mechanisms through which national mentality and social experience are transmitted via proverbs. Relying on linguistic and cognitive analysis methods, the research aims to highlight the semantic structure, conceptual foundations, and cultural significance of Uzbek folk proverbs.

Keywords: proverbs, linguo-cognitive aspect, conceptual metaphor, cognitive linguistics, source domain, target domain.

Изучение пословиц с лингвокогнитивной точки зрения: анализ и интерпретация

Назаров Кобилбек Нарзулла угли
nazarovqobilbek95@gmail.com

Базовый докторант

Ташкентский государственный университета узбекского языка и литературы

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ лингвокогнитивных особенностей узбекских народных пословиц, рассматривается их роль в отражении мировоззрения, культуры и жизненного опыта народа. Пословицы являются важными языковыми единицами, выражающими духовные ценности, образ мышления и убеждения нации, выступая как основная часть системы социокультурных знаний, передаваемых из поколения в поколение. В исследовании на основе лингвокогнитивного подхода анализируются концепты, заложенные в составе пословиц, и определяется их место в системе знаний, формирующейся в сознании человека. Особое внимание уделяется раскрытию глубоких семантических слоёв информации, выраженной через пословицы, и объяснению тех представлений, которые они формируют в народном сознании. Также в статье рассматриваются механизмы передачи национального менталитета и социального опыта через пословицы. Исследование, опирающееся на методы лингвистического и когнитивного анализа, направлено на освещение семантической структуры, концептуальных основ и культурного значения узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: пословицы, лингвокогнитивный аспект, концептуальная метафора, когнитивная лингвистика, область источника, область цели.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi. Maqollar haqida rus yozuvchisi L.N. Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” – deb yozadi. Darhaqiqat, dunyoda maqollar va hikmatlar durdonasini yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, sayqal berib, tili va dilida saqlab kelmagan biron bir xalq yo‘q. Maqollar xalqlarning o‘zligini, mentalitetini, milliy xarakterini, urf-odatlarini, qadriyatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi.

Avvalo, maqol va uning tarixiy manbalarda qo‘llanilishiga to‘xtalsak, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom asarlarida turli shakldagi maqollarning qo‘llanilishiga duch kelish mumkin. Maqollar tarixda epizodik tur sifatida kelgan asarlarga ham guvoh bo‘lamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida kelgan maqollar bunga yorqin misol bo‘la oladi (Koshg‘ariy, 1960-1963). “Devon”da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Masalan, “Devon” qo‘llanilgan *O‘kuz azaqi bo‘lg‘incha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik* maqoli hozirgi kunda *Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq* tarzida qo‘llanilmoqda. Maqollar xalq orasida juda faol qo‘llanilganligiga yorqin namuna qilib Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini keltirish mumkin. Bu asar to‘laligicha maqollar ustiga qurilgan. Xususan, asardagi *bosh omon bo‘lsa, bo‘rk topilur* maqoli *bosh omon bo‘lsa do‘ppi topilar* shaklida hozirgi kunda ham faol ishlatiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan asarlarda qo‘llanilgan maqollarning ko‘pgina qismi turli sabablarga ko‘ra eskirgan. Bu jarayon haqida nemis olimi Wolfgang Mieder “ba‘zi maqollar o‘z davriga mos kelmagani sababli foydalanishdan chiqib ketgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon odatlari va sharoitlarini aks ettiruvchi yangi maqollar doimiy ravishda maqollar zaxirasiga qo‘shilib kelmoqda”, - deya fikr bildiradi (Mieder, 2004).

Maqollar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, e‘tiqodlari va urf-odatlarini aks ettiradi. Ular muayyan millatning dunyoqarashini, turmush tarzini va axloqiy normalarini saqlab qolishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek maqollari orqali oila, mehmondo‘stlik, samimiyat va jamoatchilikka oid qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib keladi. Paremiologiyani bir qismini tashkil etuvchi bu birlik so‘nggi yillarda kognitiv nuqtayi nazardan ham o‘rganilmoqda. Mieder fikricha, maqollar kundalik tajribalar va umumiy kuzatishlarni qisqa va qolipli tilda ifodalab, ularni eslab

qolishga oson va ogʻzaki yoki yozma muloqotda samarali ritorik vosita sifatida darhol ishlatishga tayyor holatga keltiradi (W.Mieder, 2004). Maqollar inson tafakkuri mahsuli sifatida xalqning kognitiv qobiliyatlarini aks ettiradi. Ular metaforik va analogik tafakkur yordamida voqelikni tushuntirish, umumlashtirish va maʼlumotni qisqa, tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Misol uchun, *Qush uyasida koʻrganini qiladi* maqolida inson hayotida ijtimoiy taqlid va oʻrnak olishning ahamiyati kognitiv jarayon sifatida tasvirlangan. Shu oʻrinda maqollarning xalq tilining boyligi va obrazlilikini koʻrsatuvchi manba ekanligini ham eʼtiborga olish lozim. Ular odamlarga qisqa va aniq shaklda fikr bildirishga, ogohlantirishga yoki maslahat berishga yordam beradi. Bu orqali ular insonlar oʻrtasidagi muloqot jarayonini boyitadi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Shuningdek, ushbu xalq ogʻzaki ijodi namunasi inson ongiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, maʼnaviy ruhni koʻtarishga va ijtimoiy birdamlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Rus olimi V.Propp fikriga koʻra, maqollar insoniyatning ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan boʻlib, ular maʼlum bir davrda odamlarning qarashlari, axloqiy qoidalari va kundalik ehtiyojlariga mos ravishda shakllangan. Maqollarning mazmuni real hayot hodisalarini, mehnat jarayonlarini va jamiyatda mavjud boʻlgan normalarni aks ettiradi (Ипполит, 1976).

Maqollar xalq ogʻzaki ijodi mahsuli boʻlib, ular madaniy merosni saqlash va uzatish, insonlarning muloqot qilishini va bir-birini tushunishini osonlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ular turli madaniyatlar va tafakkurni oʻrganishda ham muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan maqollarni nafaqat adabiy janr sifatida, balki lingvistik aspektlarda tadqiq etish ehtiyoji tugʻiladi.

Maqollarni lingvistik jihatdan oʻrganish ularning tuzilishi, mazmuni va vazifalarini chuqurroq anglash, shuningdek, tilning madaniyat, tarix va jamiyat bilan oʻzaro bogʻliqligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Quyida maqollarni lingvistik jihatdan oʻrganishning asosiy sabablari yoritiladi:

1. **Til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash zarurati.** Maqollar xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Ularni lingvistik jihatdan oʻrganish orqali maʼlum bir xalqning madaniy kodlarini va tilning madaniy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Masalan, oʻzbek maqollarida mehnat, oilaviy qadriyatlar va jamoaviy hayot muhim oʻrin egallaydi, bu esa xalqning tarixiy tajribasini aks ettiradi.

2. **Tilning estetik imkoniyatlarini oʻrganish zarurati.** Maqollar tilning eng ixcham va taʼsirchan shakllaridan biri hisoblanadi. Ularni lingvistik jihatdan oʻrganish orqali tilning obrazlilik, metaforiklik, antitezis va ritmik tuzilish kabi xususiyatlarini aniqlash mumkin.

3. **Tilning tarixiy rivojlanishini tushunish zarurati.** Maqollar tilning qadimiy qatlamlarini saqlab qolgan boʻlib, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish tilning tarixiy oʻzgarishlarini aniqlashga yordam beradi. Xususan, oʻzbek tilidagi maqollarning ayrimlari qadimiy turkiy tilga oid unsurlarni oʻzida aks ettiradi.

4. **Til qoidalarining barqarorligini tahlil qilish zarurati.** Maqollar doimiy shaklda saqlanib qoladi, ularni oʻrganish tilning barqaror grammatik va sintaktik tuzilmalari haqida maʼlumot beradi. Maqollarning sintaktik tuzilishini tadqiq etish orqali tilga tarixiy shakli haqida maʼlumotga ega boʻlish mumkin.

5. **Lingvokognitiv xususiyatlarni oʻrganish zarurati.** Maqollarni lingvokognitiv aspektda tahlil qilish dissertatsiyaning asosiy mazmuni hisoblanadi. Maqollar xalqning fikrlash tarzini ifodalaydi. Ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish orqali insonlarning borliqni qanday tasavvur qilishini va qanday metaforalardan foydalanishini bilib olish mumkin. Shuningdek, olamning lisoniy manzarasi ham maqollarni lingvokognitiv tahlil qilish jarayonida ochib beriladi.

6. **Tarjima va tillararo tadqiqotlar uchun ahamiyati.** Maqollarni lingvistik jihatdan oʻrganish ularni boshqa tillarga tarjima qilishda muhimdir. Tarjimada semantik, pragmatik va madaniy oʻziga xosliklarni hisobga olish lozim. Turli tillardagi maqollarni chogʻishtirma aspektda oʻrganish har bir tilga tegishli maqollarning lingvokulturologik tomonlarini ochishda yordam beradi.

7. Pedagogik va kommunikativ ahamiyati. Maqollar o'quv jarayonida nutqni rivojlantirish, til o'rgatish va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda qo'llaniladi. Ularni lingvistik tahlil qilish bu jarayonlarni samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Maqollarni lingvistik jihatdan o'rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix va pedagogika fanlari uchun ham dolzarbdir.

Maqollarni lingvistik aspektda tadqiq etgan olimlar qatoriga chet el olimlaridan V.Vinogradov, Y.Lotman, J.Lakoff, Z.Kovechesh, W.Mieder, R.Trench, N.Norrik, R.Honek, M.Konnig, Sh.Arora, V.Propp, A.Afanasyev, J.Syorl, D.Hayms va o'zbek tilshunosligida B.Jo'rayeva, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, P.Bakirov kabi olimlarni kiritish mumkin.

Maqollarni lingvistik birlik sifatida tadqiq etishda dastlab struktur yondashuvga to'xtalish lozim. Chunki, til birliklarini struktur yondashuv asosida o'rganish maqollarni ham chetlab o'tmaydi va bu yondashuv atroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan turli aspektlarda maqollarning o'rganilishiga asos bo'ladi. Til birliklariga struktur yondashish nazariyasi F. de Sossyur va N.Xomskiyning izlanishlari bilan bevosita bog'liq.

F. de Sossyur tilshunoslikka umumiy yondashuv va struktural yondashuvni kiritgan olim hisoblanadi. Maqollarni o'rganishda F. de Sossyurning tilni belgi (sign) tizim sifatida tahlil qilish nazariyasi qo'l keladi. Bu nazariya orqali ularning shakli (signifiant) va mazmuni (signifié) o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, til birliklarini sinxron va diaxron tahlil qilish nazariyasi orqali maqollarni bir vaqtning o'zida (sinxron) yoki ularning tarixiy rivojlanishi (diaxron) nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin (Sossyur., 2016).

N.Xomskiyning tilshunoslikka oid asarlarida maqollarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus fikrlar bo'lmasa-da, u o'zining transformatsion-generativ grammatika nazariyasi orqali tilning umumiy tuzilishi va insonning til qobiliyati haqida tadqiqot olib borgan. Bu nazariya tilda murakkab iboralar va jumalarni tahlil qilishga imkon beradi, shu jumladan, maqollarni ham tahlil qilish mumkin (Xomsky, 1965).

Til birliklarini struktur yondashuv asosida o'rgangan yana bir olim Y.Lotman hisoblanadi. U boshqa til birliklari kabi maqollarni ikki qismli tuzilishi (masalan, sabab va natija, qiyoslash va qarama-qarshilik), sintaktik va ritmik xususiyatlari, oppozitsion birliklari (masalan, yaxshilik va yomonlik, boylik va kambag'allik) kabi jihatlarni o'rganishni tavsiya qiladi (Ю.М.Лотман, 1970).

Maqollarni semantik va stilistik jihatlarini o'rganish ham ushbu birliklarning mazmun tomonini, qo'llanilish doirasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. V.Vinogradov maqollarni o'ziga xos nutq birligi deb bilib, ularning grammatik tuzilishi va semantikasining o'zaro bog'liqligini o'rgangan (В.Виноградов, 1947). Ularning qisqa, ammo mazmunan chuqur bo'lishi tilning maxsus stilistik ifoda vositasi sifatida ajralib turishini ta'kidlagan. Shu bilan birga, u o'zining "Rus tili stilistikasi bo'yicha ocherklar" (Очерки по стилистике русского языка) asarida tilning stilistik jihatlarini, jumladan, maqollarni nutqda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan (В.Виноградов., 1952.).

Maqollarning semantik jihatini tadqiq qilgan yana bir olim N.R.Norrik hisoblanadi. Norrik maqollarni mustaqil ma'no birliklari sifatida qaraydi, ya'ni har bir maqol o'ziga xos ma'noni ifodalaydi va bu ma'no atrof-muhitga, ya'ni boshqa suhbat yoki muloqotga bog'liq emas. Bu yondashuv boshqa yondashuvlardan farq qiladi, chunki u maqollarni katta muloqot yoki suhbatning bir qismi sifatida emas, balki alohida bir ma'no shakli sifatida o'rganadi (R.Norrick., 1985).

Struktur, semantik va stilistik tomonlardan maqollar yuqorida qayd etilgan olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan va maqollarni tadqiq etishda ular ishlab chiqqan nazariyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Kognitiv nuqtayi nazardan maqollarning o'rganilishiga e'tibor qaratsak, bu bo'yicha J.Lakoff, M.Jonson, Z.Kovechesh, W.Mieder, R.Honek kabi olimlar izlanishlar olib borganligiga guvoh bo'lamiz.

J.Lakoff va M.Jonsonlar tilshunoslikda konseptual metaforalar va kognitiv lingvistika nazariyalari asoschisi sifatida tanilgan va ular maqollarni o'zining metafora nazariyasi hamda kognitiv lingvistika doirasida o'rganadi. Shuningdek, maqollarni insonning dunyoqarashi, tajribasi

va kognitiv jarayonlari bilan bog'liq til birligi sifatida tahlil qiladi. Ular ishlab chiqqan konseptual metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory) maqollarni kognitiv aspektida o'rganish uchun asos bo'ladi. Lakoffning fikriga ko'ra, maqollar ko'pincha kontseptual metaforalarga asoslanadi. Bu nazariyaga binoan, inson tafakkuri abstrakt tushunchalarni oddiyroq, ko'rgazmali tushunchalar orqali anglashga moyil (G.Lakoff and M.Johnson, 1980).

Jorj Lakoff va Mark Jonson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory, CMT) kognitiv lingvistikaning muhim yutuqlaridan biri bo'lib, inson tafakkuri va tili o'rtasidagi aloqalarni tushuntiradi. Ushbu nazariya asosida konseptual metafora hodisasi bilan bog'liq ikki tushuncha yotadi. Bular "manba maydoni" (source domain) va "nishon maydoni" (target domain) hisoblanadi. Ya'ni "manba maydoni" sifatida odatda aniq va konkret tushunchalar, "nishon maydoni"ga ko'chirilgan tushuncha esa murakkab yoki mavhum tushuncha hisoblanadi. Bu ikki tushunchani chuqur tadqiq qilgan A.G.Yuldashev "manba maydoni" insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishidagi aniq bilimlari yig'indisi va "nishon maydoni" esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilim ekanligini ta'kidlaydi (A.G.Yuldashev, 2016). Metaforalar orqali insonlar abstrakt domenni konkret domen vositasida anglashadi.

Ba'zi konseptual metaforalar insoniyat uchun universal bo'lib, ular inson tajribasi va tanasi bilan bog'liq. Masalan, "yuqoriga ko'tarilish – ijobiylik", "pastga tushish – salbiylik" kabi metaforalar deyarli barcha madaniyatlarda uchraydi.

Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi asosida maqollarni tahlil qilish, ularni inson tafakkuri va olamni anglash jarayonining lingvistik ifodasi sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu nazariya maqollardagi ma'noni faqat ularning yuzaki semantik mazmuni orqali emas, balki ular asoslangan kontseptual metaforalar yordamida tahlil qilishni taklif etadi.

Maqollarni konseptual metafora nazariyasi asosida tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

1.Konseptual metaforalarni aniqlash. Maqollar odatda abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar orqali anglatadi. Nazariya asosida maqoldagi asosiy manba maydoni (aniq, konkret tushuncha) va maqsad maydoni (murakkab, abstrakt tushuncha) aniqlanadi.

2.Til va tafakkur bog'liqligi. Maqollar, odatda, kishilarning umumiy tajribalari va dunyoqarashiga asoslanadi. Lakoff va Jonsonning nazariyasi bo'yicha maqollar insonlarning jismoniy tajribalari yoki madaniy konseptual modellar asosida shakllanadi.

3. Abstrakt tushunchalarning konkretlashtirilishi. Maqollarda ko'pincha abstrakt tushunchalar (masalan, hayot, vaqt, sevgi, baxt) konkret obyektlar yoki jarayonlar sifatida tasvirlanadi. Bu kontseptual metaforalar orqali amalga oshadi.

4. Madaniyatga xos metaforalarning tahlili. Lakoff va Jonsonning nazariyasi maqollarning madaniyatga xos tomonlarini ham o'rganishga yordam beradi. Turli madaniyatlardagi kontseptual metaforalar va maqollarni taqqoslash orqali bir xil g'oyaning qanchalik turli xil ifodalanganini ko'rish mumkin.

5. Universal va maxsus konseptual metaforalarni ajratish. Lakoff va Jonson nazariyasi yordamida maqollarning universallik va maxsuslik darajasini aniqlash mumkin. Ba'zi metaforalar hamma madaniyatlar uchun umumiy bo'lsa (masalan, "hayot – sayohat"), boshqalari faqat o'ziga xos milliy tajribaga bog'liq bo'ladi.

Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, maqollarni inson tafakkurining bir qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Maqollar nafaqat ma'nolarni ifodalash, balki insonning dunyoqarashi, tajribasi va madaniyatini aks ettiruvchi lingvistik vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasini (Conceptual Metaphor Theory, CMT) rivojlantirgan olimlardan biri Z.Kovechesh hisoblanadi. Kovecheshning fikricha, maqollar biror madaniyatning o'ziga xos dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi (Kovechesh., 2002). U madaniy metaforalarni tahlil qilib, maqollarning ma'nosini milliy madaniyat kontekstida ochib beradi. Z.Kovechesh maqollarni lingvistik tahlil qilishda konseptual metafora nazariyasini asos sifatida qo'llab, ularning madaniy va kognitiv xususiyatlarini o'rganadi. Shuningdek, u maqollarni universal

va milliy o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiruvchi hodisa sifatida ko'rib, ularni tahlil qilishda metaforik xaritalash, madaniy kontekst va asosiy tajribalarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. J.Lakkof va M.Jonson tomonidan ilk bor qo'llangan konseptual metafora nazariyasini nazariyasi Z.Kovecheshning qatorida V.Raymond, J.Gibbs, M.Turner, G.Faukonner, E.Semino, J.Greydi, A.Barselona, D.Gerarts, H.Kuykens, L.Kameron, A.Sienki kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ushbu nazariya maqollarni kognitiv aspektda o'rganish uchun eng samarali nazariya deyish mumkin.

Maqollar xalq madaniyati va turmush tarzi bilan bog'liq holda yuzga keladi. D.Haymsning qarashlarida aynan maqollarni etnografik, madaniy va sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish haqidagi nazariy fikrlarini ko'rishimiz mumkin. Haymsning fikriga ko'ra, maqollar faqatgina til birliklari emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ma'no hosil qiluvchi nutq voqealari (speech events) hisoblanadi. Ular ma'lum bir madaniyatda qanday ishlatilishini tahlil qilish, ya'ni maqollarning ijtimoiy va kommunikativ funksiyalarini aniqlash muhimdir (Hymes, 1974). Hayms maqollarning lingvistik tahlilida ularning madaniy va etnografik kontekstini hisobga olishni ta'kidlaydi. Maqolni faqat til birligi sifatida emas, balki xalqning urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashlarini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish kerak. Bu yondashuvda maqollar turli xalqlarning turmush tarzi va tafakkurini tushunishda kalit bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqollarni madaniyat va tilning o'zaro ta'sirining yorqin namunasi sifatida ko'radi. Maqollardagi obrazlilik, metaforalar va ramziy ma'nolar xalqning madaniy tafakkurini ochib beradi. Shu bilan birga, ularning qo'llanilishi tilning kommunikativ va madaniy funksiyalarini anglatadi. Dell Hayms tomonidan ishlab chiqilgan S-P-E-A-K-I-N-G modeli tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishga bag'ishlangan nazariya hisoblanadi. Bu nazariya barcha til hodisalari kabi maqollarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Ya'ni bu model nutqiy voqealarning quyidagi jihatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi:

S (Situation, scene and setting) maqolning qo'llanadigan ijtimoiy va madaniy konteksti.

P (Participants): maqollarni ishlatuvchi va eshituvchi shaxslar.

E (Ends): maqoldan foydalanish maqsadi (masalan, nasihat berish yoki axloqiy me'yorni mustahkamlash).

A (Act Sequence): maqolning nutq davomida qanday taqdim etilishi.

K (Key): maqolning ifoda uslubi (hazil, jiddiylik, kinoya).

I (Instrumentalities): maqolning aytilish shakli (og'zaki yoki yozma).

N (Norms): maqollarni ishlatishdagi madaniy va ijtimoiy qoidalar.

G (Genres): maqolning janri va stilistik xususiyatlari.

Bu model orqali turli til birliklarining, ayniqsa, nutqning bir bo'lagi hisoblangan maxsus matnlarning madaniy, kontekstual, pragmatik, kommunikativ va sotsiolingvistik tomonlarini ochib berishda keng qo'llanilgan. Shuningdek, maqollarni ham yuqorida ko'rsatilgan aspektlarda kompleks tadqiq etish samarali bo'ladi.

O'zbek xalq maqollari boy va murakkab tarixga ega bo'lib, ularning paydo bo'lishi oddiy til birliklari bilan bog'liq emas, balki xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayon o'zbek olimlarining ham e'tiborini tortdi. Maqollar ustida chuqur izlanish olib brogan Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar fikricha, maqollar "Hayot qomusi", og'zaki ensiklopediya, o'ziga xos bir badiiy tarixiy solnoma. Ular kishilarning aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sircha qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi (Sh.Shomahmudov, Sh.Shorahmedov, 1990). O'zbek xalq maqollarini lingvistik jihatdan yondosh hosidalarga bog'lab o'rgangan B.Jo'rayevaning fikriga ko'ra, borliqdagi va tilimizdagi har bir hodisa kabi maqollar ham serqirra bo'lib, o'zining xususiyatlari bilan tilimizdagi turli birliklarga goh yaqinlashib, gohida ulardan uzoqlashib, alohidalikni tashkil etadi (B.Jo'rayeva, 2020).

Maqollarni lingvistik tadqiq qilishda yuqoridagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar bir-biridan farqlanadi va har biri turli metodologiyalar hamda tahlil doiralarini taklif qiladi. F.de Sossyur tilni belgilar tizimi deb ko'radi, bunda signifiant (belgi) va signifié (belgilangan narsa)

muhim tushunchalardir. U Tilni nazariy asoslarda tahlil qilishni boshlab berdi va bu maqollarni struktur jihatdan tahlil qilish imkonini berdi. N.Xomsky tilni universal grammatik qoidalarga bo'ysunuvchi ichki qobiliyat sifatida ko'radi Uning bu nazariyasi grammatik jihatdan maqollarni sintaktik tuzilish bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi. F. de Sossyur va N.Xomskylarning struktur nazariyalaridan farqli o'laroq V.Vinogradov tilni tarixiy va madaniy kontekstda o'rganish g'oyalari ilgari suradi. U adabiy janrlar, jumladan maqollarni stilistik jihatdan tahlil qiladi. V.Vinogradov o'z nazariyasi orqali maqollarni tarixiy va ijtimoiy kontekstda tadqiq etishi bu birliklarning stilistik tomonlarini ochib beradi. Yuriy Lotman nazariyasiga ko'ra maqollar semiotik belgi sifatida tadqiq etiladi. U maqollarni belgi va ramzlar sifatida tahlil qilib, ularning madaniy kontekstini chuqurroq tushuntiradi. Bu nazariya maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishda muhim metod bo'lib xizmat qiladi. Lekin, belgilar tizimining murakkabligi tufayli har doim ham bu metodni amaliy qo'llash oson bo'lmaydi. Dell Haymsning kommunikativ va etnografik tahlil metodlari tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qiladi. Shuningdek, maqollarni madaniy kontekstda tushuntirib beradi. Ayniqsa, U o'zining S-P-E-A-K-I-N-G modeli orqali ularning qo'llanilish vaziyatlarini chuqurroq tahlil qiladi. Ammo bu modelning qo'llanilishi murakkabligi sababli, tadqiqot uchun ko'p vaqt talab etiladi. Maqollarni kognitiv aspektida tadqiq etish, asosan J.Lakoffning konseptual metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory, CMT) bilan bog'liqdir. Bu nazariya orqali nafaqat maqol, balki tarkibida metafora hodisasi bo'lgan boshqa lisoniy birliklarni tadqiq etish imkoniyatini yaratadi. Umuman olganda, inson nutqida metaforik hodisalar o'z-o'zidan bo'lmasligi va mental jarayonlar bilan bog'liq ekanligini asoslashda bu nazariya qo'l keladi. Shuning uchun ham bu nazariya Yevropa va Amerika olimlarining shu sohaga oid tadqiqotlarida juda ko'p qo'llanila boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. Massachusetts: MIT Press.
2. Hymes, D. (1974). *Foundations in sociolinguistics: An ethnographic approach*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
3. Jo'rayeva, B. (2020). *O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari*. Samarqand.
4. Koshg'ariy, M. (1960–1963). *Devoni lug'otit-turk* (Vols. I–III) (S. M. Mutallibov, Ed.). Toshkent.
5. Kövecses, Z. (2002). *Metaphor: A practical introduction*. Oxford: Oxford University Press.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press.
7. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A handbook*. Greenwood Press.
8. Norrick, N.R. (1985). *How proverbs mean*. Mouton Publishers.
9. Shomahmudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. (1990). *Hikmatnoma*. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi.
10. Sossyur, F. de. (2016). *Umumiy tilshunoslik kursi*. Toshkent: Tafakkur qanoti. (Original work published 1916)
11. Yuldashev, A.G. (2016). *Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv tadqiqi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
12. Виноградов, В.В. (1947). *Русский язык: Грамматическое учение о слове*. Ленинград.
13. Виноградов, В.В. (1952). *Очерки по стилистике русского языка. Вопросы языкознания*.
14. Лотман, Ю.М. (1970). *Структура художественного текста*. Москва.
15. Пропп, В. (1976). *Фольклор и действительность*. Наука.